XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-avgust VI-58-84-3-48-K/24 Zomin tumani

Zomin tumanining 2024 yil mahalliy budjetining daromad va xarajatlar qismiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va Budjet kodeksining 27- hamda 147-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli tavsiya xati hamda Xalq deputatlari viloyat kengashining 2024-yil 15-maydagi VI-53-111-3-0-K/24-sonli qarorlarini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining daromadlar yoyilmasida rejalashtirilgan “Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq”lar miqdori 40 foizgacha oshirish hisobiga moliyalashtirish belgilansin. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muasasasining saqlash harajatlarini shakllantirish maqsadida tuman mahalliy budjetining daromad va harajat reja ko‘rsatkichlari 1- va 2-ilovalarga mos ravishda oshirilsin. Xalq deputatlari tuman kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Zomin tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash haqida”gi VI-53-133-3-48-K/23-sonli qarori bilan tasdiqlangan mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlar va harajatlar qismiga ilovalarga asosan o‘zgartirish kiritilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov)ga mahalliy budjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muasasasi (M.Abdullayev)ga ajratilayotgan mablag‘dan maqsadli foydalinish vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Ergashev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ABDUGANIYEV
ALISHER
MUXAMMADIYEVICH

Xalq deputatlari Zomin tumani
Kengashining
2024-yil 2-avgustdagi
VI-58-84-3-48-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan daromadlar reja ko‘rsatkichlariga “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun” solig‘ining oshirilishi munosabati bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

ming.so‘mda

№	Tuman nomi	Bo‘lim	Paragraf	Daromad kodi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
1	Zomin	3145	204	3145204	2 346 785.0

Xalq deputatlari Zomin tumani
Kengashining
2024-yil 2-avgustdagi
VI-58-84-3-48-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan harajatlari reja ko‘rsatkichlariga “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasining tashkil yetilishi munosabati bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

ming.so‘mda

№	Hudud nomi	Byudet mablag‘i taqsimlovchi nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Kiritilgan o‘zgartirish	
						Kamaytirildi	Ko‘paytirildi
1	Zomin tumani	Tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	7042	480	018	0	804 255.0